O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU. ILMIY XABARLAR

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2025

TABIIY FANLAR

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.U.Mahmudov
Zicrona caerulea (Heteroptera) turining Farg'ona vodiysidagi ekologik xususiyatlari va biologik nazoratdagi ahamiyati ... 119
D.R.Kapizova, A.N.Jumayeva, Sh.I.Temirova, I.I.Zokirov
Entomofaglardagi morfologik moslanishlar haqida (koksidlr entomofaglari misolida) ... 123
N.O.Odilov, M.V.Obidov
Foydali mikroorganizmlarning o'simlik biomassasiga ta'sirini baholash ... 127
N.B.Fayziyeva, A.H.Vaxobov
Loviya oddiy mozaikasi virusi (LoMV) ta'sirida transpiratsiya intensivligining fiziologik tahlili ... 137
Sh.X.Yusupova, G.M.Zokirova, K.H.G'aniyev, I.I.Zokirov
No'xat shirasi (*Acyrthosiphon pisum*) mavsumiy populyatsiya dinamikasini gibrid stokastik-deterministik modellashtirish ... 144
E.A.Botirov
Noctuini tunlamlari (Lepidoptera, Noctuidae) xilma-xillik ko'rsatkichlarining ekotopik tahlili ... 150
S.S.Umarov
Farg'ona vodiysida kulrang g'oz *Anser anser* (Linnaeus, 1758) (Aves: Anatidae) ning tarqalishi va qishlovchi populyatsiyalari holati ... 155
E.A.Botirov
Farg'ona vodiysi Noctuini tunlamlarining (Lepidoptera, Noctuidae) rivojlanish sikli, fenologiyasi va ozuqa o'simliklari bilan trofik aloqalari ... 161

GEOGRAFIYA

O.I.Abdug'aniev, E.G'.Maxkamov, KH.Abdullaeva
Farg'ona viloyatida agroturizmni rivojlantirishda tabiiy sharoit va rekreatsion infratuzilmaning ahamiyati ... 167
D.G'.Mo'minov
Landshaft va undan foydalanish imkoniyatlarining hududiy jihatlari (Farg'ona viloyati misolida) ... 176
M.R.Qoriyev, G.R.Toshmirzayeva
Global iqlim ilishini tuproq qurg'oqchiligiga ta'siri (Shimoliy Farg'ona tuproqlari misolida) ... 182
I.I.Muxitdinov
Farg'ona viloyatining umumiy kriminogen vaziyati va uning hududiy farqlari ... 189
B.B.Umarov
Andijon viloyati geoekologik holatini geografik axborot tizimlari yordamida baholash ... 194
I.Z.Akaboyev, Z.Y.Ayubova, D.B.Ro'zmatov
Chust tumani aholisini balandlik mintaqalari bo'yicha joylashuvini o'rganish ... 198
E.A.Soliyev, M.A.Kosimov, I.Z.Akaboyev
Global iqlim o'zgarishi sharoitida Farg'ona vodiysi iqlimidagi o'zgarishlar ... 205
B.X.Kamolov
Ekoturistik hududlarning imkoniyatlarini GAT texnologiyalari asosida aniqlash va kartalashtirish (Namangan viloyati misolida) ... 211
N.S.Pardaev
Surxondaryo viloyati mehnat resurslari tarkibidagi o'zgarishlar ... 217
A.F.Raxmatov
Ekologik zo'riqishni kamaytirish orqali qishloq xo'jaligida barqarorlikni taminlash ... 222
B.Y.Zikirov, H.Z.Tilovberdiyeva
Sirdaryo viloyatida yashil maydonlarning hududiy jihatlari va tahlili ... 226
O'.K.Nargizaxon
Diniy turizmini rivojlantirishda ziyoratgohlarning o'rni va ahamiyati ... 232
O.I.Abdug'aniyev, D.B.Kosimov
Ekologik karkas – jamiyatning barqaror rivojlanish strategiyasining asosi sifatida ... 237
X.A.Abduvaliyev
Aholi zichligini aniqlashda qo'llaniladigan an'anaviy usullar ... 249
G'.Z.Tovbayev
Sirdaryo viloyati o'simlik qoplamining NDVI ko'rsatkichlar va uning gat tahlili ... 256

FarDU. Ilmiy xabarlar – Scientific journal of the Fergana State University
Volume 31 Issue 4, 2025-yil DOI: 10.56292/SJFSU/vol31_iss4/a142
UO'K: 911.3:63

LANDSHAFT VA UNDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINING HUDUDIY JIHATLARI (FARG'ONA VILOYATI MISOLIDA)

ЛАНДШАФТ И ТЕРРИТОРИАЛЬНАЯ ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ (НА ПРИМЕРЕ ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ)

LANDSCAPE AND TERRITORIAL POSSIBILITIES OF ITS USE (IN THE EXAMPLE OF FERGANA REGION)

Mo'minov Doniyor G'ulomovich
Qo'qon davlat universiteti, geografiya fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya

Bugungi kunda tabiiy landshaftlar antropogen ta'sir natijasida o'z xususiyatini yo'qotib bormoqda. Tabiat elementlaridan ilmiy asosda foydalanish ekologik havfsiz, iqtisodiy samarali natijalarga erishishga asos bo'ladi. Mazkur ishda tabiiy landshaftlardan foydalanishning hududiy jihatlarini tadqiq etish asosiy maqsad qilib olingan. Yer resurslarini o'rganishning tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy geografik omillarni hisobga olish zaruriyati to'g'risida ma'lumotlar tahlil etilgan. Resurslardan samarali va ekologik xavfsiz foydalanish jihatlariga ahamiyat qaratilgan. Tadqiqotni amalga oshirishda hududiylik, landshaft-ekstrapolyatsiya, taqqoslash, kartografik usullardan kenf foydalanilgan. Tabiiy landshaftlar xususiyatiga ko'ra balandlik zonalari bo'yicha mintaqalarga ajratilgan. Har bir mintaqa komponentlarining tabiiy geografik xususiyatlari o'rganilgan va mazkur xususiyatlaridan kelib chiqib xo'jalikda foydalanish turlari tavsiya qilinadi. Farg'ona viloyati hududi to'rtta balandlik mintaqasiga ajratiladi. Xususan, balandligi 350-400 metr bo'lgan birinchi mintaqa hududlarida o'ziga xos geoekologik-landshaft ko'rsatkichlari mavjud. Ikkinchi mintaqa esa yoyilmalarning markaziy qismini egallagan dengiz sathidan balandligi 400-600 metr bo'lgan qiya tekislik rel'yefiga ega bo'lga hududlarni o'z ichiga oladi. Tadqiqot ishida tabiatdan foydalanishda har bir mintaqaning hududiy jihatlarini inobatga olish borasida tavsiyalar berilgan. Hududdagi mavjud geografik-ekologik holatni baholash va xo'jalik yuritishda geoekologik yondashuvlarga asoslanish muhimdir.

Аннотация

Сегодня природные ландшафты теряют свои особенности в результате антропогенного воздействия. Научное использование природных элементов является основой достижения экологически безопасных и экономически эффективных результатов. Основной целью данной работы является изучение территориальных аспектов использования природных ландшафтов. Проанализированы данные о необходимости учета природных, экономических и социально-географических факторов при изучении земельных ресурсов. Особое внимание уделяется эффективному и экологически безопасному использованию ресурсов. В исследовании использовались территориальный, ландшафтно-экстраполяционный, сравнительный и картографический методы. Природные ландшафты разделены на регионы в соответствии с высотными поясами. Изучены природно-географические особенности территорий каждого региона и на их основе рекомендованы виды сельскохозяйственного использования. Соответственно территория Ферганской области делится на четыре высотных района. В частности, территории первого региона, расположенные на высоте 350-400 метров, имеют уникальные геоэкологические и ландшафтные показатели. Второй район, занимающий центральную часть плато, имеет рельеф с высотой 400-600 метров над уровнем моря. В научной работе даны рекомендации по учету территориальных особенностей каждого региона при природопользовании. Важно оценить современную геоэкологическую ситуацию в регионе и придавать значение геоэкологическим подходам в сельском хозяйстве.

Abstract

Today, natural landscapes are losing their features as a result of anthropogenic impact. Scientific use of natural elements is the basis for achieving environmentally friendly and cost-effective results. The main objective of this work is to study the territorial aspects of natural landscape use. The data on the need to take into account natural, economic and socio-geographical factors when studying land resources are analyzed. Particular attention is paid to the efficient and environmentally friendly use of resources. The study used territorial, landscape extrapolation, comparative and cartographic methods. Natural landscapes are divided into regions according to altitudinal zones. Natural and geographical features of the territories of each region are studied and, based on them, types of agricultural use are recommended. Accordingly, the territory of the Fergana region is divided into four high-altitude regions. In particular, the territories of the first region, located at an altitude of 350-400 meters, have unique geoecological and landscape indicators. The second region, occupying the central part of the plateau, has a relief with an altitude of 400-600 meters above sea level. The scientific work provides recommendations on taking into account the territorial characteristics of

each region in nature management. It is important to assess the current geoecological situation in the region and attach importance to geoecological approaches in agriculture.

Kalit so'zlar: *tabiat, ekologiya, tabiiy resurslar, yer resurslari, geoekologiya, tabiat komponenti, balandlik mintaqasi, xo'jalik.*

Ключевые слова: *природа, экология, природные ресурсы, земельные ресурсы, геоэкология, природный компонент, хозяйство.*

Key words: *nature, ecology, natural resources, land resources, geoecology, geoecology, natural component, economy.*

KIRISH

Har bir geografik mintaqa yoki hududning geoekologik hamda xo'jalik holati shu joyning orografik o'rni, u bilan bog'liq holda shakllangan tabiiy geografik sharoiti hamda antropogen ta'sirlarga bog'liq. Shuning uchun ham huduning geoekologik-xo'jalik holatni ifodalashda e'tibor qaratilishi zarur bo'lgan jihatlardan muhimi "tabiat-xo'jalik-aholi" tizimidagi o'zaro aloqalarning dinamik tarzda o'zgarib borishi va uning oqibatlari hisoblanadi [3,5].

Xususan, Farg'ona viloyati qishloq joylaridan foydalanish masalalariga e'tobir qaratadigan bo'lsak, bu yerda tabiat boyliklari orasida yer va suv resurslari asosiy resurs sifatida maydonga chiqishini ko'rishimiz mumkin. So'ngi 30 yilda viloyatdagi jami ekin yerlar miqdori, tomorqalar bilan birga hisoblaganda, 1990-yildagi 304,4 ming gektardan 2024-yilga kelib 219,7 ming gektarga tushib qolganini ko'rishimiz mumkin. Sug'oriladigan tuproqlarning sifat ko'rsatkichlarining tahliliga ahamiyat qaratilsa, bu ko'rsatkich pastligicha qolmoqda. Xususan, 1990-yilda sug'oriladigan yerlarning bonitet bali viloyat bo'yicha 66 ni, 2010-yilda 56 ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda ham shu ko'rsatkich saqlanib qolmoqda [2]. Frag'ona viloyat suv bilan nisbatan yaxshi ta'minlangan, tabiiy drenaj holati nisbatan yaxshi, suvlarning minerallashuvi kam bo'lgan yuqori zonada joylashgan. Biroq, yer osti suvlarining mintaqaviy va lokal ifloslanish ko'rsatkichlari xatarli tus olgan. "Toshloq", "Bag'dod", "Yormozor" uchastkalarida yer osti suv manbalarining ifloslanishi va minerallashuvi normadan anchagina yuqoridir.

Mustaqillik yillari davomida viloyat aholisinig soni 1990-yildagi 2226 ming kishidan, 2024-yil 1-oktabr holatiga 4123 ming kishiga yetdi. Bu yerda qishloq aholisi soni o'rganilgan davrda mos ravishda 1531 ming kishidan 2321 ming kishiga ko'paydi. Aholining o'rtacha zichligi qishloq joylarda 400 kishidan oshdi [7]. Viloyat qishloq joylarining ekologik va xo'jalik holatiga "tabiat-aholi-xo'jalik" geouchligidagi mazkur nomutanosibliklar ham ta'sir ko'rsatmoqda.

Tabiiy resurslardan foydalanishda yuzaga keladigan ekologik-xo'jalik muammolarni bartaraf etishda landshaftli yondashuvning zarurligi bugungi kunda ravshan bo'lib qoldi [9,13]. Shu nuqtayi - nazardan kelib chiqqan holda viloyat qishloq joylarining geoekologik-xo'jalik holatini tadqiq etishda hududni landshaft tiplariga ajratish hamda tabiatdan foydalanishda hududning geomorfologik va gidrogeologik ko'rsatkichlariga asoslanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga harakat qilidik. Maqsad doirasida belgilangan hududda quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- hududda landshaft turlarini ajratish;
- tabiiy landshaft komponentlarining antropogen ta'sirlarga chidamlilik darajasini aniqlash;
- hududning tabiiy agrar imkoniyatini majmuali baholash usullarini ishlab chiqish;
- ekologik vaziyatni murakkablashtiruvchi holatlarni aniqlash;
- tabiiy landshaftlarning xususiyatidan kelib chiqib undan foydalanish yuzasidan zaruriy tavsiyalar ishlab chiqish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Landshaftlarning balandlik mintaqalanishi bo'yicha gidrogeologik va gipsometrik holatini o'zgarishiga muvofiq tadqiqotning iqtisodiy geografik va ekologik jihatlaridan kelib chiqib Farg'ona viloyatida 4 ta balandlik mintaqasi ajratildi (1-rasm).

Balandlik mintaqasidagi landshaft turlarining o'ziga xos xususiyatlariga tavsif berish orqali rayonlashtirishni amalga oshirish mumkin [5,9]. Farg'ona viloyat hududida balandlik hududiy mintaqalariga mos ravishda landshaft turlari shimoldan janubga tomon o'zgarib boradi. Balandlik hududiy mintaqalari yana boshqa tabiiy geografik ko'rsatkichlar, masalan relyef, tuproq, geoekologik sharoitlari asosida 10 ta landshaft turiga bo'linadi [3,5]. Mavjud geoekologik vaziyatni shakllantirishda ushbu tabiiy regional majmualar hal qiluvchi ahamiyatga ega hisoblanadi. Lekin geoekologik va iqtisodiy geografik tadqiqotlarda ulardan to'g'ridan-to'g'ri foydalanib bo'lmaydi. Chunki ma'muriy tuman yoki xo'jaliklarning xech biri mavjud hududiy mintaqalar yoki landshaft

turlarining biridagina joylashmagandir. Mazku jihatlarni hisobga olib landshaft tiplari asosida yaratilgan hamda quyi chegaralari ma'muriy-xo'jalik birliklariga mos keluvchi balandlik mintaqalarini ajratish maqsadga muvofiq [3,11].

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Har qanday hududni geografik-ekologik jihatdan balandlik mintaqalariga ajratishda mavjud tabiiy geografik elementlar asos qilib olinadi va buni Farg'ona viloyati misolida ko'rishimiz mumkin.

I-balandlik mintaqasi: Bu mintaqa Quvasoy, Marg'ilon-Isfayramsoy, Oltiariq, Isfara, So'x, konussimon yoyilmalarining chekka qismlarini hamda Quva, So'x-Isfayram, So'x-Isfara konus oralig'i botiqlarini va yassi kuchsiz terassalangan qayirlari egallagan hududlarni o'z ichiga oladi. Ushbu hududlarda balandligi 350-400 metr bo'lgan o'ziga xos geografik-ekologik landshaft xususiyatlari mavjud. Tuproq qatlamiga va yerdan foydalanishga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omil - gidrogeologik holatdir. Bu mintaqada sizot suvlari ushbu balandlik mintaqasiga yuqoridan oqib keladi va ma'lum darajada minerallashadi (K.Boymirzaev, 2007). Ushbu jarayonga bog'liq holda mintaqada sho'rxoklarning 3 xil turi keng tarqalgan: o'tloqi sho'rxok, botqoqli sho'rxok va tipik sho'rxoklar. Mazkur mintaqada kishilar xo'jalik faoliyati ta'sirida yuzaga keladigan agroirrigatsion yotqiziqlari asta-sekin bilan yupqalashib boradi. Shu bilan birga bunday yotqiziqlar umuman paydo bo'lmagan yangi o'zlashtirilgan joylar ham mavjud.

Bu mintaqa kishilar xo'jalik faoliyati ta'sirida kuchli o'zgarishga uchrashi mumkin bo'lgan geoekologik jihatdan xavfli hudud hisoblanadi. Xususan, sug'oriladigan maydonlarning kengayishi, cho'llarning o'zlashtirilishi oqibatida yer osti suvlari sathining ko'tarilishi kuzatilmoqda. Natijada sug'oriladigan tuproqlarning ekologik holatini salbiy tomonga o'zgarishiga olib kelmoqda. Bundan tashqari qumlarning ko'chishi, yer osti suvlarining ifloslanishi, o'simlik va hayvonot dunyosining, noyob landshaft yaratmalarining yo'qolib ketish xavfini ham ko'rishimiz mumkin.

Ushbu mintaqada gidrogeologik va tuproq ko'rsatkichlarining pastligi hududning tashqi antropogen ta'sirlarga chidamlilik darajasini belgilovchi tabiiy agrar imkoniyatining pastligiga sabab bo'ladi. Yu.Ahmadaliev (2007) ma'lumotiga ko'ra mintaqadagi Yozyovon tumanida gidrogeologik sharoitning noqulayligidan uning hisoblangan bali 0,4 ga, geomorfologik ko'rsatkichlar bali 7,0 ga, agroiqlim ko'rsatkichlarining bali 19,8 ga, tuproqlarning hisoblangan bali 9,9 ga, jamlovchi ball esa 37,1 ga teng bo'lib, viloyat hududidagi eng past ko'rsatkich hisoblanadi.



1-rasm. Farg‘ona viloyatining landshaft asosidagi balandlik mintaqalari.

Mazkur mintaqa iqtisodiy geografik jihatdan katta istiqbolli imkoniyatlarga ega bo‘lgan hudud hisoblanadi. Chunki, aholi zichligining kamligi, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sug‘oriladigan yerlar miqdorining viloyat o‘rtacha ko‘rsatkichidan yuqoriligi bu mintaqani o‘zlashtirish kelajakda davom etishini bildiradi.

II-balandlik mintaqasi: Bu mintaqa konussimon yoyilmalarning markaziy qismini egallaydi. Qiya tekislik relyefiga ega bo‘lgan, balandligi dengiz sathidan 400-600 metr bo‘lgan hududlardir. Mazkur mintaqada iqlim ko‘rsatkichlari birinchi balandlik mintaqasiga yaqin bo‘lib, issiqlik resurslarining yillik koeffitsiyenti birinchi pog‘anadan bir oz kamroq, yog‘in miqdori va namlanish koeffitsiyentining yuqoriligi bilan harakterlanadi.

Tabiiy geografik jarayonlarga va inson xo‘jalik faoliyatiga yer osti suvlarining ta’siri kattadir Yer osti suvlarining yer betiga yaqinligi, bir oz minerallashuvi kuzatiladi. Unumdorligi yuqori bo‘lgan o‘tloqi-botqoq tuproqlar tarqalganligi sababli bu hududlar deyarli to‘la o‘zlashtirilgandir. Buning natijasida esa, o‘tloqi tuproqlar saz rejimidagi o‘tloqi-voha tuproqlariga aylanib ketganligini ko‘rishimiz mumkin. Mazkur tuproqlar chirindi miqdoriga ko‘ra 2 turga bo‘linadi, yani och tusli va to‘q tusli. Shu bilan birga botqoqlashgan va o‘tloqi o‘tloqi tuproqlar orasidagi pastqam yerlarda sizot suvlari ko‘tarilgan davrda yer yuzasiga yaqin keladi va bunday joylarida botqoq tuproqlarning hosil bo‘lishiga olib keladi.

Geografik-ekologik jihatdan ushbu mintaqa eng katta o‘zgarishga uchragan mintaqa hisoblanadi. Bu mintaqaga tabiiy landshaftlarning deyarli tugatilganligi, antropogen landshaftlarning katta hududni egallashi xosdir. Shu bilan birga mintaqada tuproq resurslari, suv resurslari, atmosfera havosi eng ko‘p ifloslangandir. Flora va faunasini butunlay madaniylashtirilganligini ko‘rishimiz mumkin. Qishloq hududlarda antropogen bosimning tabiatga ko‘rsatadigan ta’sirini yuqori bo‘lishiga olib keladigan yana bir sabab aholi zichligini yuqoriligi hisoblanadi. Ikkinchi mintaqa qishloq joylarida nafaqat qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining, balki, sanoat, transport va aholining texnogen bosimining yuqorini ham ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, Marg‘ilon va Qo‘qon kabi yirik shaharlarning hamda Uchko‘prik, Beshariq, Oltiariq kabi iqtisodiy rivojlangan tumanlarning ushbu mintaqada joylashganligi fikrimizning dalilidir.

Bu mintaqaning tabiiy–agrar imkoniyati, tashqi antropogen omillarga chidamlilik darajasi viloyatdagi eng yuqori ko‘rsatkichga ega hisoblanadi. Mintaqadagi tuproqlarning hisoblangan o‘rtacha bali Bag‘dod tumanida 20,4 ni, Uchko‘prik tumanida esa 24 ni tashkil etadi. Bu mintaqadagi qulay geomorfologik hamda gidrogeologik sharoitning mahsulidir. Tabiiy agrar imkoniyat ko‘rsatkichlari bo‘yicha mazkur mintaqa viloyatda eng yuqori ko‘rsatkichga egadir.

Iqtisodiy-ijtimoiy geografik jihatdan mazkur mintaqa Farg‘ona viloyati qishloq hududlari ichida eng rivojlangan mintaqa hisoblanadi. Shuningdek, bu yerlardagi qishloq joylarda yer resurslarining yetishmasligi hamda aholi bandligi kabi muammolar ham kuzatiladi.

XULOSALAR

Hududning landshaft turlari va landshaft ko‘rsatkichlari bo‘yicha ajratilgan balandlik mintaqalari geografik-ekologik, ekologik-xo‘jalik holatni baholash hamda tabiatdan foydalanishni ilmiy asosda tashkil etish maqsadida o‘tkazilayotgan tadqiqotlar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Sababki, ushbu ko‘rsatkichlar hududning tashqi antropogen ta’sirlarga chidamlilik darajasini belgilab beruvchi asosiy ko‘rsatkichlar hisoblanadi. Hududining balandlik mintaqalariga mos keluvchi, katta qismi muayyan mintaqa hududida joylashgan qishloq tumanlarini ajratib olish hududni tashqi antropogen ta’sir ko‘rsatkichlari miqdorini o‘rganishda kerakli statistik ma’lumotlardan foydalanish uchun maqsadga muvofiqdir.

Hududdan xo‘jalikda foydalanish tizimini landshaft talablari asosida takomillashtirish, hududdagi mavjud geoekologik-xo‘jalik holatni baholash, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni aniqlash va bartaraf etish bugungi kun talabidir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 7-fevraldagi O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi PF-4947-sonli Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to‘plami. 2017-y.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori. 10.06.2022-yil.

3. Аҳмадалиев Ю.И. Ер ресурсларидан қишлоқ хўжалигида фойдаланишнинг ҳудудий ташкил этилишини такомиллаштириш (Фарғона водийси мисолида): География фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертатсия. Т.: 2007. – 334 б.

4. МЎМИНОВ Д.Ғ. ҚИШЛОҚ ЖОЙЛАРНИНГ ГЕОЭКОЛОГИК-ХЎЖАЛИК ҲОЛАТИ ВА УНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ (Фарғона вилояти мисолида). География фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертаци. Тошкент. 2012.

5. Muminov Doniyor Gulomovich. Improvement of territorial organization of the use of nature. International Journal of Research.e-ISSN: 2348-6848. p-ISSN: 2348-795X. Volume 06 Issue 04. April 2019.

6. Doniyor G'ulomovich Mo'minov. Geoekologik muammolarni bartaraf etishda agrodemografik bosimni hisobga olish. Academic research in educational sciences. volume 2 | ISSUE 3 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723.

7. Kuzibayeva Ozodxon Mahmudovna, Muminov Doniyor Gulomovich. Some issues of socio-economic geographical study of rural areas. TJG - Tematics journal of Geography. Vol-5-Issue-1-2021. ISSN – 2277-2995. http:thematics journals. in UIF 2020= 6.722 IFS 2020 = 7.652.

8. Мўминов Д.Ғ.Улучшение геоэколого-хозяйственного состояния сельской местности путём оптимизатsiи агродемографического давления. "Ilm sarchashmalari". Urganch davlar universitetining ilmiy-nazariy, metodik jurnali. 2022-4.

9. Mo'minov Doniyor G'ulomovich. Geoecological mapping of land resources. Web of scientist: international scientific research journal. ISSN: 2776-0979, Volume 3, Issue 3, March, 2022. Impact Factor-7,565.

10. Муминов Д.Г. М.Гуломжонов. Ландшафтно-экологические аспекты использования земельных ресурсов. Международный Молодёжный научный форум "Парадигмы естественно-научного образования и науки в целях устойчивого развития" КазНПУ. Алматы. ноябрь, 2022. 146-150-ст.

11. Mo'minov Doniyor G'ulomovich. Farg'ona viloyati ekoturistik imkoniyatlarini baholashning bazi jihatlari. FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФЕРГУ. 2024. 1-son.

12. Mo'minov Doniyor G'ulomovich. Tabiiy landshaftlardan iqtisodiy – ijtimoiy geografik foydalanishning bazi masalalari. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФЕРГУ. 2024. 1-son.

13. Odiljon Tobirov, Doniyor Muminov va b. IDENTIFICATION OF MUDFLOW-PRONE AREAS IN THE SHAKHIMARDAN TOURIST AND RECREATION ZONE USING MULTI-CRITERIA ANALYSYS AND GIS. GEOGRAFICHY CASOFIS / GEOGRAPHICAL JOURNAL. 76. [2024] 3. 01-02. DOI: https://doi.org.10.31577/geogrcas.2024.76.3.00.